



**KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ SIFATIDA SOG'LOM ATROF-MUHIT:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

Botirova Mufazzar Zokirjon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs
talabasi*

botirovamufazzal63@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik huquqning konstitutsiyaviy asoslari, ularni amalga oshirish mexanizmlari hamda xalqaro tajribalar bilan taqqoslama tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda sog'lom va xavfsiz atrof-muhitda yashash huquqi mustahkamlanganligi, bu huquqning amalda ta'minlanishiga doir muammo va takliflar yoritilgan. Shuningdek, Germaniya, Hindiston va Norvegiya kabi davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalari orqali ekologik huquqni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Maqolada ekologik ong va huquqiy madaniyatni oshirish zarurligi haqida alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: ekologik huquq, konstitutsiya, sog'lom atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, Orol fojiasi, ekologik ong, konstitutsiyaviy huquqlar, ekologik muammolar, xalqaro ekologik tajriba, barqaror rivojlanish, atrof-muhit va inson salomatligi

**THE RIGHT TO A HEALTHY ENVIRONMENT AS A
CONSTITUTIONAL RIGHT: THEORY AND PRACTICE**

Botirova Mufazzar Zokirjon qizi

*1st year Student, Faculty of International Law, University of world economy and
diplomacy*

botirovamufazzal63@gmail.com

Abstract: This paper examines the constitutional foundations of environmental law in Uzbekistan, with a particular focus on the mechanisms ensuring its implementation and a comparative analysis of international legal frameworks. The revised Constitution of the Republic of Uzbekistan explicitly guarantees the right to live in a healthy and safe environment. The study discusses key challenges in the practical enforcement of this right and proposes potential legal and institutional solutions. Drawing on the constitutional experiences of Germany, India, and Norway,





the paper highlights best practices and explores opportunities for further development of environmental rights in Uzbekistan. The importance of enhancing environmental awareness and legal culture among citizens is also emphasized as a critical component of sustainable legal reform.

Key words. *environmental rights, Constitution, healthy environment, environmental safety, Aral Sea disaster, environmental protection, environmental awareness, environmental issues, constitutional rights, sustainable development, environment and human health*

ASOSIY QISM

1. Ekologik huquqning konstitutsiyaviy asoslari (O'zbekiston misolida)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari keng va chuqur yoritilgan bo'lib, ularning orasida sog'lom va xavfsiz atrof-muhitda yashash huquqi alohida o'rin egallaydi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 49-moddasiga ko'ra, "Har kim sog'lom va xavfsiz atrof-muhitda yashash huquqiga ega." Bu norma ekologik huquqni mustaqil konstitutsiyaviy huquq sifatida tan olishni anglatadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 53-moddasida davlatga yuklatilgan ekologik majburiyatlar belgilab qo'yilgan: "Davlat atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi." Ushbu moddalar davlatning ekologik siyosatini shakllantirishda konstitutsiyaviy asos vazifasini bajaradi

Ekologik huquq konstitutsiyada mustahkamlangan bo'lishi nafaqat fuqarolarning bu boradagi huquqiy imkoniyatlarini oshiradi, balki davlat organlari faoliyatini ham muayyan huquqiy doirada olib borishni taqozo etadi. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasida ekologik mas'uliyatning adolatli taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyat hayotining boshqa qismlari kabi, ekologik tizimga ham alohida e'tibor berilishi rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirishning bir asosiy sababi o'laroq xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

2. Ekologik huquqni amalga oshirish amaliyoti

Konstitutsiyaviy huquq sifatida belgilangan ekologik huquqlarni amalda ta'minlash murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Ammo nazariyalarni qabul qilish bilan bir qatorda masalaning amaliy qismiga ham e'tibor qaratishimiz lozim. Bunda asosiy o'rin qonunchilikni ijro etuvchi organlar, sud tizimi, jamoatchilik va fuqarolarning o'zlari zimmasiga tushadi. Xo'sh, ekologik huquq va imkoniyatlarimiz aynan qaysi jabhalarda o'z aksini topadi?

Fuqarolarning ekologik huquqlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- Atrof-muhit holati to'g'risida axborot olish huquqi;



- Atrof-muhitni muhofaza qilishda ishtirok etish huquqi;
 - Atrof-muhitga zarar yetkazilgan taqdirda, tovon yoki kompensatsiya olish huquqi.
- O'zbekiston Respublikasi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar orqali bu huquqlar mustahkamlangan.

Ekologik nizolar yuzaga kelganida fuqarolar sudlarga murojaat qilishi mumkin. Masalan, korxonalarining noqonuniy chiqindilari yoki ifloslantiruvchi faoliyati sababli sog'lig'iga ziyon yetgan shaxslar o'z huquqlarini sud orqali himoya qilishi mumkin. Biroq, amaliyotda bu jarayonlar murakkab va ba'zida cho'zilib ketgan bo'lishi mumkin, bu esa ekologik huquqlarning samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari hozirgi kunda eng ko'p uchratayotgan yana bir holat mavjud. Ya'ni, sanoatlashgan Shahar quraman deb ba'zi tadbirkorlar so'lim bog'rog'larimizni buzib tashlab, o'rniga ko'p qavatli uylar qurish bilan ovora. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning toza havodan nafas olish huquqini qaysidir ma'noda poymol qilyapti deyishimiz mumkin. Ommaviy axborot vositalarida kuzatib boraman, ba'zida fuqarolar aynan shu masala yuzasidan birlashib sudga murojaat qilishyapti. Masala hal qilingunicha kurashishyapti. Bundan asosiy maqsad sog'lom ekologik muhitni saqlab qolishdir.

3. Xalqaro tajriba va O'zbekiston: solishtirma tahlil

Endi esa ekologik xavfsizlik masalasining konstitutsiyamizdagi ahamiyati va boshqa xorijiy mamlakatlar qonunlaridagi normalarni solishtirib ko'ramiz. Ko'plab xorijiy davlatlar ham ekologik huquqni konstitutsiyaviy darajada tan olgan. Masalan: Germaniya: Grundgesetz (Asosiy qonun)ning 20-a moddasida davlat ekologik muvozanatni saqlashga mas'ul ekani aytilgan.

Norvegiya: Konstitutsiyasining 112-moddasida har bir insonning sog'lom atrof-muhitda yashash huquqi ko'rsatilgan.

Hindiston: To'g'ridan-to'g'ri ekologik huquq Konstitutsiyada belgilanmagan, biroq Oliy sud qarorlari orqali yashash huquqining ajralmas qismi sifatida tan olingan.

O'zbekiston yuqoridagi davlatlar tajribasidan foydalanib, ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirishi, ekologik sudlar tizimini shakllantirishi va fuqarolarning ekologik huquqlaridan foydalanish mexanizmlarini soddalashtirishi mumkin. Bundan tashqari, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" dasturida ham atrof-muhit va inson salomatligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikka e'tibor qaratilgan. O'zbekiston ushbu xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan va ularning asosida ichki siyosatini shakllantirishga intilmoqda.





Masalani yana bir tomoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yurtimizda hozirgi kunda ko'plab ekologik muammolar mavjud. Xususan, Orol fojiasi-konstitutsiyaviy huquqqa yetgan jiddiy putur. O'zbekiston fuqarosi sifatida meni eng ko'p o'ylantiradigan ekologik muammolardan biri bu-Orol dengizi bilan bog'liq fojidadir. Asrning eng katta inqirozi deb e'tirof etilgan bu holat, aslida millionlab insonlarning konstitutsiyaviy huquqlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Orolning qurishi bu oddiygina tabiat o'zgarishi emas. Bu minglab insonlarning sog'ligiga, yashash sharoitiga, ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga jiddiy zarar yetkazadigan falokatdir. Orolbo'yi atrofida yashovchi aholining ichimlik suvi, oziq-ovqat va toza havoga bo'lgan huquqi buzilyapti. Bu esa Konstitutsiyada belgilangan sog'lom va xavfsiz atrof-muhitda yashash huquqi degan normaning buzilishini bevosita ifoda etadi. Shu jihatdan olib qaraganda Orolbo'yi masalasi nafaqat ekologik, balki konstitutsiyaviy masala hamdir. Davlat ushbu hududda yashovchi aholining yashash muhitini yaxshilashi, ularning muammolariga yechim topishi va sog'lom atrof-muhitni ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishi lozim.

Nazarimda, har bir fuqaro Orolbo'yi masalasidan yaxshi xulosa olishi, ekologik ongini yuksaltirishi va o'zini o'rab turgan ekologik muhitga nisbatan befarq munosabatda bo'lishni bas qilishi kerak. Biz qanchalik tabiatga e'tibor bilan qarasak, tabiat bizga berayotgan toza havodan nafas olish imkoniyatini qadriga yetsak, konstitutsiyaviy huquqlarimizni anglaganimiz o'laroq burch va majburiyatlarimizni ham o'z o'rnida bajarsak, mamlakatdagi ekologik muhitning barqarorlashuvi va yaqin kelajakda rivojlanishiga sababchi bo'lamiz. Ekologik muhitning yaxshilanuvi bevosita iqtisodiyotga, ijtimoiy hayot tarziga katta ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Ekologik xavfsizlik va sog'lom atrof-muhitda yashash huquqi bugungi kunda inson huquqlarining ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ushbu huquqning aniq ifodalanishi — demokratik va fuqarolik jamiyatiga xos muhim qadamlardan biridir. Shu bilan birga, bu huquqni amalda ta'minlash uchun huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, davlat organlari faoliyatini oshkoralik va jamoatchilik ishtirokida olib borish, ekologik ta'lim va madaniyatni rivojlantirish zarur.

Kelajak avlodlarga sog'lom muhit qoldirish bugungi jamiyatning burchidir. Bu borada har bir fuqaroning konstitutsiyaviy huquqlari haqida xabardor bo'lishi, ularni himoya qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda davlat tomonidan ularning amalda ta'minlanishi kafolatlanishi zarur. Shunday bo'lgandagina ekologik huquq nafaqat qog'ozda, balki hayotda ham real kuchga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda jamiyatning har bir fuqarosi tabiat uchun, davlat rivojlanishi va Yer sayyorasi uchun birdek ma'sul!





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri) – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2023.
2. “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 1992-yil 9-dekabr (oxirgi o‘zgartirishlar bilan).
3. “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun, 2000-yil 25-may.
4. A. Xayitov, N. Karimov. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2022.
5. G.V. Maltsev. Ekologicheskoe pravo. – Moskva: Norma, 2020.
6. UN General Assembly. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. United Nations, 2015.
7. Hindiston Oliy sudi qarorlari to‘plami – M.C. Mehta v. Union of India (1987), Subhash Kumar v. State of Bihar (1991).
8. B. Toshqulov. Huquq va ekologiya. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
9. Federal Republic of Germany. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz), 20a-modda.
10. Kingdom of Norway Constitution, Article 112.